

HUQUQ VA INSONIYAT: NOGIRONLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING RIVOJI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14501875>

Axmedova Shaxnoza Asatullaevna

Guliston Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy –gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi(huquq ta'limi) yo'nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola nogironlar huquqlarini himoya qilishning tarixiy va zamonaviy jihatlarini o'rganadi. Nogironlik, inson huquqlari doirasida, ko'plab mamlakatlarda e'tiborga olinmay kelgan. Maqolada BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi, shuningdek, xalqaro qonunchilik va amaliyotdagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, nogironlar huquqlarini himoya qilishda jamiyat, davlat va xalqaro tashkilotlarning roli muhokama qilinadi. Maqola, nogironlar huquqlarini himoya qilishda yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar

nogironlik , imkoniyati cheklanganlar, statistika, Temur tuziklari, konvensia, xalqaro hujjatlar, paralimpiya.

Аннотация

В данной статье рассматриваются исторические и современные аспекты защиты прав людей с инвалидностью. Инвалидность долгое время оставалась вне поля зрения прав человека во многих странах. В статье анализируются Конвенция ООН о правах инвалидов, а также изменения в законодательстве и практике различных государств. Также обсуждается роль общества, государства и международных организаций в защите прав инвалидов. Статья предоставляет знания, необходимые для разработки более эффективных стратегий по защите прав людей с инвалидностью.

Ключевые слова

инвалидность, инвалиды, статистика, правила Темура, конвенция, международные документы, Паралимпийские игры.

Abstract

This article explores the historical and contemporary aspects of protecting the rights of people with disabilities. Disability has often been overlooked in the realm of human rights across many countries. The article analyzes the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, along with changes in legislation and practices in various states. It also discusses the role of society, government, and international organizations in safeguarding the rights of individuals with disabilities. The article provides insights necessary for developing more effective strategies for the protection of disability rights.

Keywords: disability, people with disabilities, statistics, Temur's decrees, convention, international documents, Paralympics.

Insoniyatning haqiqiy o'lchovi- bu uning uning zaiflarga bo'lgan munosabatidadir

Mahatma Gandhi

Kirish

Nogironlar huquqlari inson huquqlari doirasida muhim o'rin tutadi. Ular, jamiyatning boshqa a'zolari kabi, teng huquqlarga va imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak. Biroq, tarixan nogironlar ko'pincha e'tiborsiz qoldirilgan va ularning huquqlari cheklangan, masalan, ta'lim, bandlik, qashshoqlik, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, oziq- ovqat xavfsizligi uy- joy, transport, jinoyat va oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lishda sezilarli tafovutlarga duch kelishadi. Bu borada ayollar eng ko'p nomutanosiblikni boshdan kechirishmoqda. Ayniqsa, COVID- 19 pandemiyasi bu nomutanosiblikni yanada o'sishiga sabab bo'ldi desak to'g'ri bo'lardi. Ushbu maqolada nogironlar huquqlarini himoya qilishning rivoji, muammolari va kelajakdagi yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va tarixiy talqini

Ushbu maqola uchun tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar va xalqaro huquqiy hujjatlardan foydalanildi. BMT ning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRPD) va boshqa muhim manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, nogironlar huquqlarini himoya qilishda mavjud muammolar va kelajakdagi yo'nalishlar haqida ekspert fikrlari o'rganildi.

Nogironlar va ularni himoyasiga qaratilgan tarixiy rivojlanishiga nazar tashlab, nogironlarga g'amxo'rlik qilgan insonlar bor. Windover arxeologik ma'lumotlari saytini ma'lumotiga ko'ra, Messopatamiyada nogironlar jamiyatda turli darjalarda ishlashga ruxsat berilgan. Qadimgi Misr davlatida nogironlar foydalanishi uchun turli asboblardan foydalanilgan, bu ularning yurishiga yordam

bergan. Qadimgi Gretsiyada nuqsoni bor shaxslar uchun ibodatxona va shifoxonalarga kirishga ruhsat beruvchi qonunlar qabul qilingan^[1]. Bu kabi qoidalar zamonamizdagi nogironlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora tadbirlar va qonunlarning qabul qilinishiga ibtido vazifasini o'tagan.

O'rta asrlarda musulmon dunyosining ma'naviy qadriyatining asosi hisoblangan Quroni Karimning "Baqara" surasining 282-oyatida imkoniyati cheklangan shaxslarning mulkiy huquqiga oid munosabatlar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, "Ey mo'minlar bir biringiz bilan qarz oldi berdi qilsangiz yozib qo'yinglar, orangizda bir kotib adolat bilan yozsin, agar zimmasida qarzi bo'lgan kishi aqlsiz yoki ojiz (yosh bola yoki o'ta keksa) bo'lsa yoki (kar saqovligi yoki til bilmasligi sababli) aytib turishga qodir bo'lmasa uning homiyi yoki vakili adolat bilan yozdiring" ^[2:15] deb takidlangan. Tabir joiz bo'lsa shuni alohida takilash kerakki, Quroni Karim imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy himoyasi va mulkiy huquqlari himoyasi borasidagi eng dastlabki yuridik hujjatlardan biri bo'lgan.

Shuningdek, Temuriylar davlatida ham imkoniyati cheklanganlar uchun ijtimoiy himoya tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu haqda Temur tuzuklarida quyidagicha bayon qilingan: "Amr edimki... faqiru miskin, biror kasb qilishga ojiz ko'r vashollarga nafaqa tayinlansin... g'aribxona, keksalar uchun shifoxona qurdiringlar ularda ishlashi uchun tabiblar tayinlansinlar" ^[3:67]

XVII asrdan to XX asrning birinchi choragigacha bo'lgan davrda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiy himoyasiga doir ma'lumotlarni ana shu davrda yashagan ba'zi shoirlar, davlat, ilm-fan arboblarning asarlarida, shuningdek, tarixnavislik janridagi kitoblarda va boshqa tanqidiy-tavsifiy asarlarda uchratish mumkin. Jumladan, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Mahmud Ibn Valining "Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" ("Olijanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi"), Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Abdulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarai Turk", Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk", Muhammad Amin Buxoriyning "Muhit ut-tavorix", Mullo Yunusjon Munshiyning "Amir lashkar Alimqul tarixi" asarlarida adolatli hukmdor siymolari va ularning aholining nochor qatlamlariga, xususan imkoniyati cheklanganlarga g'amxo'rlik munosabatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. ^[4:723]

Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 1 milliarddan ziyod kishida ya'ni dunyo aholisining 15%da nogironlikni u yoki bu turi kuzatiladi. Ularning 80% rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Hozirga vaqtda O'zbekiston aholisining 2,14 % nogironligi bor shaxslar sifatida qayd etilgan. ^[5]

Nogironlik bo'yicha to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni hayotda nogironligi bo'lmagan shaxslar bilan teng holatda ishtirokini ta'minlash uchun muhimdi

10 noyabr, Toshkent - BMTning O'zbekistonda Ijtimoiy tizimni mustahkamlash bo'yicha qo'shma loyihasi doirasida, BMTTD Davlat Statistika Qo'mitasi hamda O'zbekiston nogironlar Assotsiasiyasi bilan birgalikda salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan trening tashkillashtiridi. "Nogironlik bo'yicha ma'lumot yig'ish, tahlili qilish va undan foydalanish usullari" deb nomlangan tadbirda Davlat Statistika Qo'mitasi, Tibbiy Mehnat Ekspert Komissiyalar, Sog'liqni saqlash, Moliya, Bandlik vazirliklari va Tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligidan 42 mutaxassis ishtirok etdi.^[6]

Jahon banki tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda rasman 2022-yilda 845,3 ming kishi yoki umumiy aholining 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar deb tan olingan. Bu haqda bankning mamlakatdagi vakolatxonasi bergan ma'lumotlarda so'z boradi.

Uch va undan yuqori yoshdagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og'ir shakliga ega. Ta'kidlanishicha, nogironlikning tarqalishi yosh bilan chambarchas bog'liq bo'lib, 60 va undan yuqori yoshdagilarning 54 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga ega. Nogironligi bor shaxslarning katta qismi qishloq joylarda yashaydi: qishloqlarda 532 ming, shaharlarda esa 313,3 ming nafar. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich Navoiy (3,6 foiz) va Sirdaryo viloyatlarida (3,1 foiz) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,9 foiz) kuzatilmoqda. O'zbekistonda 142,3 ming nafar 18 yoshgacha bo'lgan nogironligi bor bolalar va 396,7 ming nafar pensiya yoshiga yetmagan nogironligi bo'lgan shaxslar bor. Nogironligi tasdiqlangan erkaklar (475,8 ming) soni ayollarga (369,5 ming) nisbatan ko'proq.^[7]

Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, nogironlar sonining oshib borishi, ular uchun bir qator noqulayliklar; resurslar yetishmovchiligi, ijtimoiy izolyatsiya, ishga joylashish, transport va infuraturuzilma muommolari, psixologik streslarga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa davlat tomonidan bu yuklamalarni bartaraf etish uchun bir qator chora tadbirlarni ko'rishni talab etadi.

Natijalar

1. Tarixiy Rivojlanish: Nogironlar huquqlari tarixan ko'plab mamlakatlarda e'tiborsiz qoldirilgan. 20-asrning o'rtalaridan boshlab, inson huquqlari harakati bilan birga nogironlar huquqlariga e'tibor kuchaydi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon hamjamiyatida ijtimoiy dunyoqarashning o'zgarishi natijasida inson omili ustuvor ahamiyat kasb etgan bir

sharoitda imkoniyati cheklangan shaxslarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ushbu davrda 1948-yilda Angliyaning Stok-Mandevil reabilitatsiya gospitali vrachi Lyudvig Guttman tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun Parallimpiya sportiga asos solinishi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Dastlab "Stok Mandevil nogironlar aravachasi o'yinlari" o'tkazilib, keyinroq, 1976-yildan boshlab, ilk qishki va yozgi Paralimpiya o'yinlari tashkil etildi. Unda 40 ta mamlakatdan 1600 nafarga yaqin sportchilar qatnashdi. Shunday qilib, dastlab nogironlarni davolash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan musobaqa yuqori darajadagi sport tadbiriga aylandi. 1989-yilga kelib esa Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi (IPC) tashkil etildi. Lyudvig Guttman o'zining hayrli ishlari bois "imkoniyat cheklangan sportchilarning otasi" degan nom oldi.^[8]

2. BMT Konvensiyasi: Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2007-yil 30-martda imzolash uchun ochilgan. 20 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin u-2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. 2022-yil aprel holatiga ko'ra, 163 ta imzolovchi davlat va 185 ta a'zo bo'lgan davlat, ya'ni 184 ta davlat va Yevropa (Yevropa Ittifoqi Konvensiyani 2010-yil 23-dekabrda ratifikatsiya qilgan).ushbu konvensiyaning mohiyati uning tamoillarida Konventsianing 3-moddasida bayon etilgan sakkizta yetakchi tamoyillarida aks etgan:

1.O'ziga xos qadr-qimmatni, shaxsiy erkinligini, shu jumladan o'z tanlovini qilishda erkinligini va shaxslarning mustaqilligini hurmat qilish;
2.Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik;
3.Jamiyatda to'liq va samarali ishtirok etish va qo'shilish;
4.Farqlarni hurmat qilish va nogironlarni insoniy xilma -xillik va insoniylikning bir qismi sifatida qabul qilish;
5.Imkoniyatlar tengligi;
6.Foydalanish imkoniyati;
7.Erkak va ayollar o'rtasidagi tenglik;
8.Nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini va nogiron bolalarning o'z shaxsiyatini saqlab qolish huquqini hurmat qilish; ^[9]

Ushbu konvensiya nogironlarni tenglik va hurmat asosida muomala qilishni, nogironlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ta'lim olish va ishga joylashish kabi sohalarda imkoniyatlarni kengaytiradi.

3. Zamonaviy Muammolar: Hozirgi kunda nogironlar huquqlarini himoya qilishda bir qator muammolar mavjud, jumladan, qonunchilik yetishmovchiligi, jamiyatda mavjud stereotiplar va infratuzilma yetishmasligi.Bu muammolarning yechimi uchun davlat tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi zaruratga aylanib bormoqda; Yani,Sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirish,Ta'lim mkoniyatlarini

kengaytirish(inkluziv ta'lim,nogironlar uchun moslashtirilgan o'quv muassasalarini yaratish),transport va infratuzilmani moslashtirish,ijtimoiy yordam va dasturlarni kuchaytirish,qonunchilikni takomillashtirish, tadqiqot va statistikasi kuchaytirish va h.

4. Jamiyat va Davlat Roli: Jamiyatda nogironlarga nisbatan tushuncha va hurmatni oshirish uchun ta'lim va targ'ibot ishlari zarur. Davlatlar esa qonunchilikni takomillashtirishga intilishi kerak.Bugungi kunda O'zbekistonda davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari 200dan ortiq normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan bo'lib,Konstitutsiya,40dan ortiq qonun va 160dan ortiq qonunosti hujjatlari mavjud.

Bundan tashqari O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora- tadbirlar to'g'risida" gi farmoni bilan O'zbekiston Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.agentlikning viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlari markazlari o'z faoliyatini boshladi. Bundan tashqari, 2024 yil 20 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim shakllanishi, ularga ishlash va kasb-hunarga o'qishda to'siqsiz muhit yaratish uchun ularning "mehnatga layoqatini belgilash" amaliyotidan voz kechilishi, shuningdek nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanishi alohida ahamyatga ega bo'ldi.

Xulosa

Nogironlar huquqlarini himoya qilish – bu faqat nogironlarning manfaatlarini himoya qilish emas, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan jarayon. Har bir insonning teng huquqlarga ega bo'lishi jamiyatning adolatli va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu maqola orqali biz nogironlar huquqlarini himoya qilishning rivoji va muammolarini ko'rib chiqdik. Kelajakda bu borada yanada ijobiy o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda, shuning uchun nogironlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlar davom ettirilishi zarurdir.

REFERENCES

1. [https://uz Wikipedia.org>wiki>nogironlik](https://uz.wikipedia.org/wiki/nogironlik)
2. Quroni Karim (Alouddin Mansur tarjimasi) - Toshkent: Cho'lpon, 1992.-b.
3. Temur tuzuklari. - Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1991.-b.
4. Shamsiyeva. M.X. Imkoniyati cheklangan shaxslarga g'amxo'rlik masalasi tarixiy talqinda. // Educational Research in Universal Sciences/ VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 2 | 2024
5. (<https://www.gazeta.uz/ru/2018/11/29/statistics/>)
6. (<https://www.undp.org/content/uzbekistan/en/home/projects/joint-programme-on-social-protection-uzbekistan>.)
7. (<https://t.me/wbuzbekistan/1216>)
8. <http://sports.uz>. > news > view > par.../Paralimpiya o'yinlari tarixinibilasizmi?U aslida harbiylar...
9. Nogironlar huquqlarini to'g'risidagi Konvensiya. / <https://lex.uz/docs>
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 10.
11. <https://stat.uz.23.06.22-y>
12. <https://www.gazeta.uz>>2023/06/01
13. <https://ww.undp.org/uz/Uzbekistan/press-releases>